ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI

ILMIY AXBOROTNOMA 2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY

4

journal.namdu.uz

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-4]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Axrorova Umida Xamidullayevna
University of Business and Science nodavlat
oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: axrorova.umida@mail.ru

PEDAGOGIK JARAYONLARDA TIZIMLI TAHLIL YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik jarayonlarda tizimli yondashuv, pedagogik tizimning xossalari, pedagogik jarayon, pedagogikada tizim strukturasi, pedagogik faoliyat xususida so'z yuritilgan. Qolaversa, maqolada pedagogik tizimli tahlil muammolariga doir ayrim mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Konstruktiv komponent, tashkiliy komponent, kommunikativ komponent, pedagogik funksiya, ta'lim jarayoni, tarbiyalash funksiyasi.*

Ахророва Умида Хамидуллаевна
University of Business and Science негосударственный
преподаватель высшего учебного заведения
Доктор философии (PhD)по педагогическим наукам

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОДХОДОВ СИСТЕМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ

Абстрактный. *В данной статье говорится о системном подходе к педагогическим процессам, особенностях педагогической системы, педагогическом процессе, структуре системы в педагогике и педагогической деятельности. Кроме того, в статье представлены некоторые комментарии по проблемам педагогического системного анализа.*

Ключевые слова: *Конструктивный компонент, организационный компонент, коммуникативный компонент, педагогическая функция, образовательный процесс, воспитательная функция.*

Akhrorova Umida Khamidullayevna
University of Business and Science non-governmental
teacher of a higher education institution
Doctor of Philosophy (PhD)in Pedagogical Sciences

THEORETICAL BASIS OF THE USE OF SYSTEMATIC ANALYSIS APPROACHES IN PEDAGOGICAL PROCESSES

Abstract. *This article discusses the systematic approach to pedagogical processes, the properties of the pedagogical system, the pedagogical process, the structure of the system in pedagogy, and pedagogical activity. In addition, the article presents some considerations on the problems of pedagogical systematic analysis.*

Keywords: *Constructive component, organizational component, communicative component, pedagogical function, educational process, educational function.*

Kirish.

Pedagogik jarayonlarda tizimli tahlilning pedagogik yondashuvlardan fotdalanish talabalarning fikriy faoliyatning, ayniqsa fandagi yangiliklarni taklif qilishda, fan-texnika va ishlab chiqarish sohasidagi yutuqlarni ta'minlashda samarali uslublardan biri hisoblanadi. Eng muhim ko'rsatgichlardan biri shundaki tizimli yondashuv dars jarayonlarida talabalar faoliyatini tartibga solishda, maqsad, rejalarni belgilashda, faoliyat samaradorligini oshirishda, manfaatlarni ifoda etishda, ijodiy imkoniyatlarning oqilona taqsimlashda, zamonaviy pedagogik texnalogiyalar qatorida muhum yondashuv sifatida natija berib kelmoqda. Bunda talabalar dars jarayonlarida, ilim oluvchi holatidan o'z taqdirining

egasiga, yaratuvchilik va bunyodkorlik qudratiga ega fazilatlar bilan qurollanmoqda. Shunday ekan, pedagogik faoliyatda tizimli tahlil asoslarini joriy etish bilan mazkur yo‘nalishdagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlari kyengayadi deb hisoblaymiz. Shuningdek, pedagogika fani tushunchalari bilan pedagogik tizimli tahlil uslublari boshqa-boshqa sohalar ekanligini aloxida takidlashimiz kerak.

Adabiyotlar tahlili.

Tizimli yondashuv pedagogik jarayonlar metodologiyani shakllantirishda pedagogik voqeylik va jarayonlarning xususiyatlarini aniqlash bilan tadqiqot tizimini vujudga keltiradi. Buning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri pedagogik tizimning ijtimoiy xolatidir. Pedagogik tizimning o‘ziga xos xususiyatini izlash asosiy holatni aniqlash orqali pedagogik obyektning sifatli va xususiyatlarini belgilash mumkin bo‘ladi. Bu borada M.A.Danilovning pedagogik jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch bu ziddiyatli vaziyatlardir. Ziddiyatli jarayonlar tinglovchiga qo‘yilayotgan talablar va uni bajarish imkoniyatlari o‘rtasida mavjud bo‘ladi. Ikkinchidan, ta’lim olish va amaliy vazifalar qo‘yilayotgan talablar bilim darajasining mavjudligi, tajriba va mahorat, aqliy daraja rivoji o‘rtasidagi ziddiyatlar pedagogik tadqiqot obyektini belgilaydi. Eng muhimi shuki, u jarayonni harakatga keltiruvchi kuch bo‘lib, ta’limning mazmundorligi bilan belgilanadi. Ziddiyatli vaziyatlarni yechuvchi kuch muammo muhim ekanligini anglash va zaruriyatini his qilish pedagogik yondashuvning asosini tashkil etadi.

Pedogogik tajriba shundan dalolat beradiki, pedogogik tizim yondashuvi mazkur tizimni ajratish, alohida chuqur o‘rganish, ziddiyatlarini tahlil etish va bir-biriga qiyosiy taqqoslash asosida yaxlit strukturasini tashkil etishdan iborat bo‘ladi. Tizimli yondashuvlar asosida pedagogika fanini o‘rganish bu ikkita metodlardan, ya’ni sintez va analiz metodlaridan foydalanishni talab qiladi. Sintez – bu har bir obyekt tashkil etuvi komponentlarni qismlarga ajratib alohida o‘rganish bo‘lsa, analiz metodi komponentlarni qiyoslash va bir-biriga yaqin bo‘lgan elementlarni yagona tizimga birlashtirish demakdir.

Umuman olgan barcha zamonaviy fanlar tizimli tamoyillar asosida tashkil etilgan tizimli yondashuvning muhim jihatlari bilishning yangi, samarali, yagona nazariy metodologik tamoyillarni ishlab chiqishga qaratiladi. Bunda asosiy bosh masala ta’lim pedagogning o‘quvchi bilan yaxlit va bir butunlikdagi o‘zaro aloqadorligi jarayonlari masalasiga ahamiyat qaratiladi. Bu aloqadorlikda pedagog ta’lim oluvchini rag‘batlantiruvchi, yo‘naltiruvchi bo‘g‘in sifatida faollikka undaydi. Ammo bu pedagogik jarayonlarning dastlabki, sub’yekt va obyekt munosabatlari bosqichlarini tashkil etadi. Tizim yaxlitligi ta’lim va tarbiyaning bir butunligida, biri albatta ikkinchisisiz mavjud bo‘lmasligida. Tizimli tahlilning yondashuvlari pedagogik tizimni pedagogning mehnati va faoliyati orqali tahlil etish imkoniyatini beradi. Jumladan, tabiyaviy tushuncha “shaxs”, “munosabat”, “struktura”, “aloqadorlik” tushunalari bilan bog‘liqdir. Bu bog‘liqlik ta’lim-tarbiya pedagogik tizimninng muhim va murakkab tarkibiy elementlardan tashkil topganligini ifoda etadi. Pedagogika – shaxsni jamiyat hayotiga tayyorlash, ularni ijodiy va faol shaxs sifatida tarbiyalash maqsadiga yo‘naltirilgan, o‘zini-o‘zi tashkil etuvchi tizim.

Tadqiqot metodologiyasi.

Shu ma’noda falsafa pedagogik g‘oyalarning ishlab chiqilishida maqsad obyektini belgilovchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Aynan ushbu fan pedagogik xodisalarning bilish metodini ko‘rsatadi, yo‘naltiradi va umumiy yondashuvlarni belgilaydi. Pedagogik tizim yondashuvlari bir tomondan pedagog olimlar va ikkinchi tarafdan faylasuflar aniq fanlarda emas, jamiyat, tabiat, tafakkur qilish bilan bog‘liq qarashlari rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib pedagogik faoliyatda tizimli tahlil uch yo‘nalishdagi yondashuvlar vujudga keladi.

-tizimli yondashuv metodologiyasini maxsus pedagogika sohasida ishlab chiqish;

-pedagogik fanda mustaqil metodologiya sifatida foydalanish;

-tizimli yondashuvni aniq pedagogik tadqiqotlarda qo‘llash [1].

Pedagogik tizimli tahlil ta’lim tizimida amaliy-yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Zero, bunday yondashuv tizim obyektini bilish amaliyotini har tomonlama qamrab oladi. Pedagogik tizimda sodir bo‘ladigan pedagogik jarayon elementlarning funksiyalariga muvoffiq qanday holatda o‘zgarish sodir bo‘lishi aniqlanganda ularga baho berish imkoniyati vujudga keladi. Bu tizim odamlar tomonidan tashkil etiladi va ulardan alohida mavjud bo‘lmaydi. Shunday ekan, pedagogik obyektlarning yaxlitligi tizimli yondashuvlarning tashkil etilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogikada tizimli yondashuv tushunchasi quyidagi maqsad-vazifalarni qamrab oladi:

- pedagogik tizimda pedagogik jarayonlarning dinamikli mohiyatini aniqlash va asosiy xususiyatlarini berish;

- pedagogik jarayonning asosi - yaxlitlik tamoyilini belgilash;

- pedagogik jarayonning yaxlit strukturasini ochish.

Pedagogik jarayonlar pedagogik ob’yektlarning real pedagogik voqeligida namoyon bo‘ladi. Bir tomondan ular jamiyatda ta’lim muassalari bor ekan, o‘quv jarayonlarining maqsadi ma’lum qonuniyatlar asosida rivojlanishini ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan, pedagogik jarayonning yaxlitligini ta’minlovchi rivojlantirish funksiyasi ta’lim-tarbiyani uyg‘unligini ifoda etadi.

Pedagogik yondashuv strukturaviy va funksional model qurilishini talab qiladi. Pedagogik yondashuvning aniq ifodasi “pedagogik tizim”, “pedagogik jarayon”,

“peadgogik faoliyat”, “metodlar, shakllar, vositalar tizimi”, “pedagogik model tizimi”, “didaktek tizim”, “tarbiya tizimi”, “ta’limni boshqarish tizimi” kabi kategoriyalarda namoyon bo‘ladi. Pedagogik yondashuv mohiyati: ta’limning maqsadi, pedagogik jarayonlar sub’yekti, pedagok va o‘quvchi, ta’limning mazmuni, metodi, shakli, vositasi, pedagogik jarayonlar kiradi. O‘qituvchining vazifasi komponetlarni hisobga olishdan iborat. Mazkur ta’limotning asoschilaridan biri sifatida E.G. Yudinning «tizim tamoyillari va tashkilot vositalari, nazariy qurilishi, amaliy faoliyati» belgilab bergan metodologik tavsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yondashuvlar kategoriyalaridan biri bu pedagogik jarayonlardir. Pedagogik jarayon ta’lim-tarbiya mazmunini hisobga olgan holda tashkil etilgan o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ifoda etadi. Pedagogik jarayon shaxsni kamol toptirishda jamiyat ehtiyojlarini qondirishda turli pedagogik vositalardan foydalangan holda pedagogik vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat turi.

Tahlil va natijalar.

Shunday qilib, pedagogik yondashuv tizim elementlarini alohida o‘rganish va ajratish imkoniyatini beradi. Yagona yaxlit strukturaga birlashtirish asnosida ularni bir-biri bilan taqqoslaydi va tahlil etadi.

Ta’limda tizimli yondashuv o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. U o‘quvchilarga o‘quv materiali mazmunini tushuntirib beradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilaydi, qanday ishlash lozimligini qayta ko‘rsatadi. Ko‘rib turganimizdek, pedagogik tizim ta’limning o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati, ya’ni, o‘qituvchining o‘rgatish hamda o‘quvchining o‘rganishga yo‘naltirilgan faoliyati, boshqacha aytganda to‘g‘ridan to‘g‘ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi.

Pedagok yondashuv zamonaviy fanda shunday yangi bir metodologik yo‘nalishni ochib berdiki, fan olamidagi turg‘unlik va inqiroziy vaziyat yechimilarini hal etishga xizmat qildi. Zero, yaxlitlik va qism mutanosibligi, elementlarning iyerarxik munosabati falsafada qadim davrlardan o‘rganilib kelinatgan bo‘lsada, yangi davrning murakkablashgan turli-tuman tizimlar olami yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Zamonaviy bosqichda mazkur yondashuvning mohiyati ixtisoslashtirilgan vazifalarni aniqlash orqali ochiladi. Ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi va ko‘ptamonlamalik xususiyati tadqiq etiladigan obyektning yaxlit ifodasi, uning ixtisoslashgan xarakterini ochishga qaratilgan ilmiy vositalarni izlashga yo‘naltiriladi. Shunga ko‘ra, tizimni har tomonlama rivojlantirish maqsadida birinchi navbatda uning ichki qurilishini aniqlash lozim, ya’ni tizim qanday komponentlardan tashkil topgan, uning strukturasi va funksiyasi nimalardan iborat, shuningdek, yaxlitligini va nisbatan mustaqilligini ta’minlovchi omillarni aniqlashdan iborat.

Ikkinchi tarafdan real mavjudligining dinamik holatini kuzatish lozim. Tizim dinamikasi o‘z navbatida ikki xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, tizim harakati uning funksional faoliyatini bildirsa: ikkinchidan, tizim harakati rivojlanish, shakllanish, evolyusiyasi, yemirilishi, qayta tashkil etilishida namoyon bo‘ladi. Shunga muvoffiq tizimning murakkab dinamikasi predmetli, funksional va tarixiylik yondashuvlarni talab qiladi.

Pedagogik tizimli yondashuv “bilim, mahorat, tushuncha”formulasini uyg‘unlashtira oladigan ta’lim tizimini talab qiladi. Bu formula nafaqat bilishga, bilganini anglashga, anglaganini amalga oshirishga qaratiladi. Hozirgi xolatda esa faqat fan predmeti atrofida takrorlash bilan cheklanmoqdamiz. Shu sababdan fanning mohiyatini o‘rganamiz, maqsad - vazifasini esa anglab yetmaymiz. Natijada fan yutuqlarini amalda qo‘llash mahoratini egallay olmaymiz. Shu sababdan fan rivojlanmaydi va bilimlarimiz ham yuzaki bo‘lib qolmoqda. O‘quv darsliklarida aniq metodik uslublar turli qarashlar, yondashuv talqinlaridan ko‘ra fan tarixi haqidagi bayonchilik uslublari ustuvorlik qiladi. Oqibatda talabada ijodiy tafakkur qilish salohiyati rivojlanmaydi va maqsad mavhum bo‘lib qoladi.

Xulosa va takliflar.

Bugungi ta’lim tizimning asosiy kamchiligi bu avvalo nazariy fanlarning amaliyot bilan bog‘lanmaganligi. Talabalarda bu yoki bu fan nimaga o‘qitiladi va uni qanday qo‘llash mumkin degan savol har doim ham javobini topmaydi. Undan tashqari fanlar va soatlarning ortib ketishi sifatli o‘zlashtirishda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Natijada maxsus – ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari ochiladi. Fizikani chuqurroq o‘rganish hisobiga boshqa fanlarni yuzaki o‘zlashtirish shakllandi. Ammo, talabalarni “fiziklar” va “liriklarga” ajratish ta’limning yaxlitligiga putur yetkazdi. Bu jarayon bugun integrasion metodlar asosida fanlar uyg‘unligini ta’minlashga erishishga qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Сурмин Ю. П., Туленков Н. В. Методология и методы социоло-гических исследований: Учеб. пособ. — К.: МАУП, 2000
2. Pedagogika: Ucheb. posobiye dlya stud. ped. vuzov / Pod red. Yu. K. Babayevskogo. M., 2001.
3. Pedagogika: Uchebnoye posobiye dlya studentov pedagogicheskix vuzov i kolledjey / Pod red. P. I. Pidkasistogo. - M., 2005.

4. Pedagogika: Uchebnoye posobiye dlya studentov pedagogicheskix uchebnых zavedeniy / V.A. Slastenin, I.F. Isayev, A.I. Mіщyenko, Ye.N. Shiyanov. M., 2000.

5. Vulfov, B.Z. Osnovы pedagogiki v leksiyax, situatsiyax, pervoistochnikax / B.Z. Vulfov, V.D. Ivanov.- M., 1997.- Tema 7.

6. Kapterev P. F. Pedagogicheskiy prosess // Izbr. ped. soch. / Pod red. A.M.Arsenyeva. - M., 1989.

7. Bordovskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika: Ucheb. dlya vuzov. - S-Pb.: Piter, 2000.

Oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini boshqarishning pedagogik-xususiyatlari.
A.Musurmanov..... **1100**
Oliy pedagogik ta’limda voleybol fanini o‘qitishning metodik xususiyatlari va dolzarbligi.
X.Muxtorova..... **1104**
Malakali og‘ir atletikachilar mashg‘ulotida haftalik mikrotsikllarni qo‘llash tartibi.
N.Abduraxmonov..... **1107**
Uzluksiz ta’limning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri.
Sh.Ergashbaev..... **1111**
Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy faoliyatida pedagogik madaniyatni o‘rganishning dolzarbligi.
D.Kamalova..... **1115**
Ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning axamiyati.
K.Yusupova..... **1120**
Pedagogik jarayonlarda tizimli tahlil yondashuvlaridan foydalanishning nazariy asoslari.
U.Axrorova..... **1123**
Pedagoglarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari.
O.Akbarov..... **1127**
Talabalarda “INNOWEB-KVEST” ta’lim platformasi orqali loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish troektoriyasi.
M.Davronova..... **1130**
Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika o‘qitish orqali kasbga yo‘naltirish.
I.Zaxidov, G.Boyturayeva..... **1135**
Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.
M.Jumayeva..... **1139**
Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining tarjima malakalarini takomillashtirishning lingvistik muammolari.
S.Nematjonova..... **1143**
Raqamli ta’lim platformalari asosida mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish metodikasi.
M.Nishonova..... **1146**
Texnika ixtisosliklarida ta’lim olayotgan talabalarning kasbiy madaniyatning shakllanganlik darajasi.
U.Norqulov..... **1150**
Suzish ixtisosligidagi talabalarni suvda va quriklikda mashg‘ulotlarini tashkil etish uslubiyati.
S.Nosirov..... **1153**
Gandolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi.
A.Nizomov..... **1158**
Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlaridagi o‘quv va amaliy mashg‘ulotlar.
U.Xoldorov..... **1161**
Особенности профессиональной подготовки будущих учителей начального образования.
Г.Абдуллаева..... **1166**
O‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi badiiy gimnastikachilarni jismoniy tayyorgarik ko‘rsatkichlari tahlili.
M.Rahmonova..... **1169**
Interactive methods in foreign language teaching and their effective application.
Kh.Rukhiddinov..... **1174**
Zamonaviy sharoitda tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi mohiyati va tuzilishi.
M.Sharofiddinov..... **1178**
Duduqlanishni birgalikda yengamiz.
X.Saydaliyeva, U.Utbasarova..... **1182**
Talabalarning pedagogik tadqiqot boshidagi jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha ko‘rsatkichlarining tahlili.
Sh.Isabekov..... **1187**
Maktabgacha ta’lim tizimini standartlashtirish sharoitida ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni tashkil etish.
G.Sharipova..... **1191**
Ziyoli mafkurasi - kelajak poydevori.
A.Sodiqov..... **1195**
Milliy kurash musobaqalarini tashkil etishning pedagogik-uslubiy jihatlari.
J.Sodiqov..... **1200**
Professional ta’limda maxsus fanlarni o‘qitishning didaktik tamoyillari.
I.Sagatov..... **1204**
Talabalarga nomoddiy madaniy meros muhofazasi bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rgatishda qo‘llaniladigan texnologiyalar.